“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=382

2026-yil
8-son
avgust
ISSN 3093-8546

Tezkor-qidiruv tadbirlarida maxsus bilimlardan foydalanishning huquqiy shakllari: mutaxassis va ekspert maqomini farqlash masalasi

Санжар Алматов,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети
мустақил изланувчиси
e-mail: sanjarzokirovich505@gmail.com

Аннотация. Maqolada tezkor-qidiruv faoliyatida va jinoyat protsessida maxsus bilimlardan foydalanishning huquqiy shakllari qiyosiy tahlil qilingan. Tezkor-qidiruv tadbiri doirasida olingan mutaxassis fikrining yo‘naltiruvchi ahamiyatga ega ekani, obyektning esa protsessual yo‘l bilan ishga kiritilgandan keyingina ekspertiza obyekti bo‘la olishini asoslaydi hamdamaxsus bilimlardan foydalanishning uch bosqichli modeli asoslanadi hamda qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar tahlil qilinadi.

Калит сўзлар. maxsus bilimlar, mutaxassis, sud eksperti, sud ekspertizasi, tezkor-qidiruv tadbiri, qiyosiy namunalar, dalillarning maqbulligi, obyektni protsessual rasmiylashtirish, ekspert-kriminalistik faoliyat.

Аннотация. В статье проведён сравнительный анализ правовых форм использования специальных знаний в оперативно-розыскной деятельности и уголовном процессе. Обосновывается, что мнение специалиста, полученное в рамках оперативно-розыскного мероприятия, имеет ориентирующее значение, тогда как объект может стать объектом судебной экспертизы лишь после его приобщения к материалам дела в процессуальном порядке. Также анализируются трёхэтапная модель использования специальных знаний и предложения по совершенствованию законодательства.

Ключевые слова. специальные знания, специалист, судебный эксперт, судебная экспертиза, оперативно-розыскное мероприятие, сравнительные образцы, допустимость доказательств, процессуальное оформление объекта, экспертно-криминалистическая деятельность.

Annotation. The article provides a comparative analysis of the legal forms of using specialized knowledge in operational-search activities and criminal proceedings. It substantiates that a specialist’s opinion obtained within the framework of an operational-search measure has an indicative and guiding value, whereas an object may become an object of forensic examination only after it has been formally introduced into the case through the prescribed

procedural procedure. The article also analyzes a three-stage model for the use ofspecial knowledgeand proposals for improving the relevant legislation.

Keywords. specialized knowledge, specialist, forensic expert, forensic examination, operational-search measure, comparative samples, admissibility of evidence, procedural formalization of an object, forensic expert activities.

Jinoyatlarni fosh etish amaliyotida maxsus bilimlar ikki xil huquqiy muhitda qoʻllanadi. Ularning birinchisi – tezkor-qidiruv faoliyati boʻlib, unda mutaxassis yordamidan foydalanish tezkor vazifani hal etishga, ya'ni ma'lumotni olish va tekshirishga xizmat qiladi. Ikkinchisi – jinoyat protsessi boʻlib, unda maxsus bilimlar sud ekspertizasi shaklida dalil hosil qilish vositasiga aylanadi. Ushbu ikki muhitning maqsadi, hujjatlashtirish tartibi va huquqiy oqibati bir-biridan jiddiy farq qiladi, biroq amaliyotda ular koʻpincha bitta jarayonning ketma-ket bosqichlari sifatida qabul qilinadi. Natijada tezkor bosqichda olingan xulosa keyinchalik ekspertiza xulosasining oʻrnini bosishga urinadi yoki aksincha, protsessual jihatdan bekami-koʻst oʻtkazilgan ekspertiza obyektning kelib chiqishi toʻgʻri rasmiylashtirilmagani sababli oʻz kuchini yoʻqotadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018 yil 24 avgustdagi 24-sonli qarorida ma'lumotlar tergov yoki sud harakati oʻtkazilmasdan, shuningdek jinoyat-protsessual qonunida belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan tezkor-qidiruv tadbirlari vaqtida olingan boʻlsa, ular maqbul dalil hisoblanmasligi aniq belgilangan [4]. Demak, maxsus bilimlardan tezkor bosqichda foydalanishning oʻzi hech qanday protsessual oqibat hosil qilmaydi, oqibat faqat natija qonunda belgilangan shaklga solingandagina yuzaga keladi. Shunga qaramay, “mutaxassis xulosasi”, “mutaxassis ma'lumotnomasi”, “dastlabki tekshiruv natijasi” kabi amaliyotda keng tarqalgan hujjatlarning maqomi qonunchilikda yetarlicha aniq yoritilmagan.

Maxsus bilimlar kriminalistika fanida an'anaviy tarzda ikki yoʻnalishda oʻrganiladi: protsessual shakl (ekspert xulosasi, mutaxassis ishtiroki) va noprotsessual shakl (maslahat, dastlabki tekshiruv, tezkor yordam). Ushbu tasnifning oʻzi bahsli emas, biroq milliy adabiyotda noprotsessual shakl natijasining taqdiri, ya'ni u qanday hujjatda aks ettirilishi, ishga qanday kiritilishi va sudda qanday baholanishi tizimli yoritilmagan.

Xorijiy tadqiqotlarda ushbu muammo asosan dalilning ishonchliligi nuqtai nazaridan yoritiladi. D. Lou terrorizmga qarshi politsiya tergovlarini tahlil qilar ekan, tezkor samaradorlik bilan protsessual qonuniylikni qarama-qarshi qoʻymaslik zarurligini ta'kidlaydi [5], bu qoida maxsus bilimlar sohasida ham toʻliq amal qiladi: tezkor bosqichda olingan texnik fikr qanchalik toʻgʻri boʻlmasin, u protsessual shaklga solinmas ekan, sudda dalil sifatida ishlamaydi. J. Retkliffning intellektga asoslangan politsiya faoliyati konsepsiyasida tahliliy ma'lumotga qaror qabul qilishni yoʻnaltiruvchi vosita sifatida qaraladi [6]. Aynan shu mantiq

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

mutaxassis fikriga nisbatan ham qoʻllanishi mumkin, u tekshiruv yoʻnalishini belgilaydi, ammo aybdorlik toʻgʻrisidagi xulosaga asos boʻlmaydi. Yevropa sud-ekspertiza muassasalari tarmogʻining eng yaxshi amaliyot boʻyicha koʻrsatmalarida obyektning kelib chiqishi va oʻzgarmaganligini hujjatlashtirish ekspert tekshiruvi sifatining ajralmas sharti sifatida belgilangan [7].

Umuman olganda, ikki qonunning taʼriflarini qiyoslashni oʻrinli deb topdik. Xususan, “Sud ekspertizasi toʻgʻrisida”gi Qonunga koʻra, sud ekspertizasi – fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va maʼmuriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, sanʼat yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini oʻtkazish va xulosa berishdan iborat boʻlgan protsessual harakatdir [2]. Ushbu taʼrifda uchta belgi hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlib, ekspertiza protsessual harakat sifatida taʼriflanadi, uni faqat sud eksperti maqomiga ega shaxs oʻtkazadi va u albatta xulosa bilan yakunlanadi. “Tezkor-qidiruv faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonunda esa tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar oʻz zimmalariga yuklatilgan vazifalarni hal etish uchun maxsus bilimlarga ega boʻlgan mutaxassislar yordamidan foydalanish huquqiga ega, predmetlarni va hujjatlarni tekshirish esa tadbir sifatida aynan zarur ilmiy, texnikaviy va boshqa maxsus bilimlarga ega mutaxassislarni jalb etgan holda oʻtkaziladi [1]. Koʻrinib turibdiki, bu yerda maxsus bilim dalil hosil qilish emas, tezkor vazifani hal etish vositasi sifatida ishlatiladi va Qonun mutaxassis faoliyatining natijasini xulosa deb atamaydi.

Demak, mutaxassis ishtirokida oʻtkazilgan tekshiruv, u qanchalik puxta bajarilmasin, sud ekspertizasi emas va uning oʻrnini bosa olmaydi. Buning sababi texnik emas, sof protsessual: bunday tekshiruvda ekspertiza tayinlash toʻgʻrisidagi qaror mavjud boʻlmaydi, tekshiruvchi shaxs sud eksperti maqomida harakat qilmaydi va tegishli ogohlantirish olmaydi, tekshiruv obyekti protsessual yoʻl bilan ishga kiritilmagan boʻladi, taraflarning ekspertiza tayinlashga oid huquqlari taʼminlanmaydi, tekshiruv metodikasi esa qayta tekshirish imkonini beradigan darajada hujjatlashtirilmaydi. Shu bois amaliyotda uchraydigan “mutaxassis xulosasi” atamasining oʻzi chalgʻituvchidir – mazmunan bu hujjat mutaxassisning fikri yoki maʼlumotnomasi boʻlib, uning vazifasi keyingi protsessual harakatlarni yoʻnaltirishdan iborat. Oliy sud Plenumida keltirilgan taʼrifda ham aynan shu mantiqni tasdiqlaydi: protsessual shaklga solinmagan tezkor natija dalillar majmuiga kira olmaydi [4].

Ikkinchi va kriminalistik jihatdan eng nozik masala – qiyosiy tekshiruv uchun namunalar. “Tezkor-qidiruv faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonunda qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yigʻish mustaqil tezkor-qidiruv tadbiri sifatida belgilangan boʻlib, u moddiy obyektlarni kelgusida qiyosiy tekshirish uchun olishdan iborat [1]. Jinoyat-protsessual kodeksida esa namunalar olish alohida protsessual tartibda, yaʼni shifokor yoki boshqa mutaxassis

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

tomonidan namuna olish, ekspert tomonidan tajriba namunalarini olish, namuna olishda shaxs huquqlarining himoya qilinishi va namuna olish bayonnomasini tuzish qoidalari bilan tartibga solingan [3]. Ikki tartibning maqsadi bir xil koʻrinsa-da, huquqiy qiymati teng emas, shunga qaramay amaliyotda ular tez-tez almashtirib yuboriladi.

Bu masalada, fikrimizcha, obyektning turiga qarab farqlash zarur. Jinoyat izi sifatida yuzaga kelgan obyekt masalan, shubhali hujjat, yozuv qoldirilgan ashyo yoki ma'lumot saqlovchi qurilma tezkor yoʻl bilan aniqlanishi va olinishi mumkin, chunki u jinoyat voqeasi bilan bogʻliq holda mavjud boʻlgan izning oʻzidir. Lekin u ekspertiza obyektiga aylanishi uchun albatta protsessual yoʻl bilan ishga kiritilishi, ya'ni belgilangan tartibda taqdim qilinishi yoki olib qoʻyilishi, koʻzdan kechirilishi va bayonnoma bilan rasmiylashtirilishi shart.

Uchinchi masala – bir shaxsning ikki maqomda ishtirok etishi. Tezkor-qidiruv tadbirida mutaxassis sifatida qatnashib, predmet yoki hujjatni dastlabki tekshirgan shaxs keyinchalik shu ish boʻyicha sud eksperti etib tayinlanishi mumkinmi? Jinoyat-protsessual kodeksida ekspertning, mutaxassisning, tarjimonning va xolisning ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar alohida modda bilan tartibga solingan [3], biroq mazkur holat unda toʻgʻridan-toʻgʻri nazarda tutilmagan. Holbuki, obyektni avvalroq tekshirib, unga nisbatan fikr bildirgan mutaxassisning keyin ekspert maqomida oʻsha obyektni tekshirishi xolislik talabiga mos kelmaydi: ekspert oʻz oldingi fikrini tekshirmasdan tasdiqlash ehtimoli yuqori boʻladi. Bu texnik muammo emas, ekspert xulosasining ishonchliligiga ta'sir qiluvchi protsessual kamchilik, shu bois uni norma darajasida hal etish maqsadga muvofiq.

Toʻrtinchi jihat raqamli obyektlar bilan bogʻliq. Jinoyat-protsessual kodeksining tegishli bobi narsalar va hujjatlar bilan bir qatorda elektron ma'lumotlarni taqdim qilish masalasini ham qamrab oladi [3], bu esa raqamli obyektning protsessual maqomini tan olish yoʻlidagi muhim qadamdir. Ayni paytda elektron obyektning oʻziga xosligi shundaki, uning nusxasi asl nusxadan farq qilmaydi, shu bois obyektning oʻzgarmaganligini tasdiqlash vazifasi oldingi oʻringa chiqadi. Tezkor bosqichda mutaxassis yordamida olingan raqamli ma'lumot keyinchalik kompyuter-texnik ekspertizaga yuborilganda, ekspert oldida turgan asosiy savol koʻpincha ma'lumotning mazmuni emas, uning qachon, qayerdan va qanday olingani hamda shu paytdan beri oʻzgarmaganligidir. Bu savolga javob faqat protsessual hujjatlar orqali berilishi mumkin.

Oʻtkazilgan tahlil tezkor-qidiruv faoliyatida va jinoyat protsessida maxsus bilimlardan foydalanish bir xil mazmunga ega boʻlsa-da, huquqiy oqibati boʻyicha tubdan farq qilishini koʻrsatdi. Mutaxassis ishtirokidagi tekshiruv – tezkor vazifani hal etish vositasi, sud ekspertizasi esa dalil hosil qilish shaklidir, shu bois birinchisining natijasi ikkinchisining oʻrnini bosa olmaydi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Shu asosda, *birinchidan*, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning predmetlarni va hujjatlarni tekshirishga oid normasini mutaxassis faoliyati natijasining maqomi aniq ko‘rsatiladigan tarzda to‘ldirish taklif etiladi: mazkur natija dalil emas, balki protsessual harakatlarni yo‘naltiruvchi ma'lumot hisoblanishi normada qayd etilishi lozim.

Ikkinchidan, elektron obyektlar bo‘yicha ularning olinishi, uzatilishi va saqlanishi zanjirini hujjatlashtirishning yagona protsessual talabi belgilanishi zarur, zero raqamli dalilning ishonchliligi, avvalo, mana shu zanjir bilan tasdiqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-344-son “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni // Elektron manba: lex.uz/docs/2107763.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi O‘RQ-249-son “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonuni // Elektron manba: lex.uz/docs/1633102.

3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi// Elektron manba: lex.uz/acts/111460.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-sonli “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori // Elektron manba: lex.uz/docs/3895986.

5. Lowe D. Policing Terrorism: Research Studies into Police Counter-Terrorism Investigations. – New York: Routledge, 2015. – 231 p.

6. Ratcliffe J.H. Intelligence-Led Policing. 3rd ed. – London: Routledge, 2026.

7. ENFSI. Best Practice Manuals (sud-ekspert tekshiruvlarida obyektning kelib chiqishi va yaxlitligini hujjatlashtirish talablari) // Elektron manba: https://enfsi.eu/about-enfsi/structure/working-groups.